

*"AhluSSUNNA val-jAMOA" kutubxonasi*

**Shayx Muhammad ibn Solih Usaymiyn rahimahulloh**

**"AhluSSUNNA val-jAMOA" e`tiqodi**

*Bismillahir rohmanir rohiym*

**Muqaddima**

Yagona Alloh ta`ologagina hamd va sanolar, o`zidan so`ng payg`ambar bo`lmajan payg`ambarga, uning oilasi va do`svoṭ va salomlar bo`lsin.  
So`ng ...

Men do`stimiz alloma **Shayx Muhammad Solih Usayminning** ushbu risolasini sinchiklab e`shitib chiqdim va "AhluSSUNNA val-jAMOA" ning Alloh ta`oloning ism va sifatlardagi vahdoniyatini, farishtalar, kitoblar, payg`ambarlar, oxirat kuni hamda taqdirning yaxshi va yomoniga iymon keltirish bobidagi e`toqodini o`z ichiga olganini ko`rdim. U o`z ishining ustasi chiqdi. Chunki, U ilm toliblari va barcha musulmonlar Alloh ta`ologa, uning farishtalari, kitoblari, e`lchilari, oxirat kuni hamda taqdirning yaxshi va yomoniga bo`lgan iymonlarida muhtoj bo`ladigan, biroq, boshqa kitoblarda topilmaydigan bilimlarni o`z risolasida jamlagan. Alloh ta`olo unga xayrli mukofotlar bersin, bilimiga bilimlarni va hidoyatni ziyoda qilsin! Uning bu va bundan boshqa kitoblari uchun savoblar berib, bizni, uni va boshqa do`stlarimizni Alloh ta`oloning yo`liga ongli da`vat qiluvchi to`g`ri yo`ldagi kishilar qatorida qilsin!

Alloh ta`olo payg`ambarimizga, uning oilasi va sahabalariga salavot va salomlar yo`llasin!

**Alloh ta`ologa muhtoj bo`lgan faqir banda**

**Abdulaziz ibn Abdulloh ibn Boz**

**Ilmiy Izlanishlar, Fatvo, Da`vat va Irshod Idorasining raisi**

*Bismillahir rohmanir rohiym*

Barcha olamlar robbisi bo`lgan Alloh ta`ologa hamdlar bo`lsin.

Oqibat mo`minlarning foydasi uchundir, tajovuz zolimlarga qarshidir! Men e`gadorlik va ochiq haqiqat sohibi, yagona, sherihsiz Alloh ta`olodan boshqa haqiqiy iloh yo`q, Muhammad uning e`lchisi va bandasi, payg`ambarlarning so`nggisi, taqvodorlarning imomi deb guvohlik beraman. Alloh ta`olo unga, uning oilasi, sahobalari va unga qiyomat kuniga qadar e`rgashgan barcha kishilarga salavot va salomlar yo`llasin.

So`ng ...

Alloh ta`olo Muhammad sollallohu alayhi va sallamni hidoyat va haqqi rost din bilan barcha olamga rahmat va bandalar ziyoniga hujjat qilib yubordi. Alloh ta`olo payg`ambari hamda yuborgan kitobi va hikmativositasi bilan bandalarning salohiyati, diniy va dunyoviy manfaatlari bo`lgan sog`lom e`tiqod, fazilatli va go`zal xulqlarni bayon qildi. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam o`z ummatini tuni kunduzdek bo`lgan, halok bo`lgan kishilargina adashadigan yo`l ustida tashlab ketdilar. Bu yo`ldan rasululloh sollallohu alayhi va sallamning Alloh va rasuliga ijobat qilgan sahabalar, tobiinlar va ularga yaxshilik bilan e`rgashgan bandalarning saralarigina yurdilar. Ular rasululloh sollallohu alayhi va sallam olib kelgan shariatno qoim qilib, uning e`tiqod, ibodat, axloq va odobdagagi sunnatlariga amal qildilar. Natijada, ular Alloh ta`oloning amri kelguniga qadar tashlab ketganlar va muxolif bo`lganlar zarar etkaza olmaydigan, haqiqat uzra sobitqadam bo`lgan toifaga aylandilar.

Biz Alloh ta`ologa hamdlar bo`lsinki, ulatning yo`llaridan yurib, Qur`on va sunnat bilan sug`orilgan hayotlariga e`rgashmoqdamiz. Biz bu so`zlarni Alloh ta`oloning bizga bo`lgan ne`matlarini yod qilish va barcha mo`minning mas`uliyatini bayon qilish maqomida aytmoqdamiz. Alloh ta`olodan o`zimiz va barcha muslimonlarni dunyo va oxiratda o`zgarmas so`z bilan sobitqadam qilishini hamda uni bizga rahmat qilib in`om e`tishini so`raymiz. Zero, U in`om e`tuvchi "Vahhob"dir.

E`tiqod mavzusi muhim va u haqida bandalar turli istakda bo`lgani uchun ham, men bizning "Ahlussunna val-jamoa" aqidasi: Alloh ta`ologa, uning farishtalari, kitoblari, payg`ambarlari, oxirat kuniva taqdirning yaxshi va yomoniga iymon keltirish haqida muxtasar kitobcha yozishni maqsad qildim. Alloh ta`olodan bu kamtarona ishimni o`z yuzi uchun xolis, roziligi uchun muvaffaq va bandalari uchun foydali qilishini so`rayman.

## **E`tiqodimiz**

**Bizning e`tiqodimiz:** Alloh ta`ologa, uning farishtalari, kitoblari, payg`ambarlari, oxirat kuni hamda taqdirning yaxshi va yomoniga iymon keltirishdir. Shuning uchun ham biz:

- Alloh ta`oloning rububiyati ya`ni uning barcha ishlarni rijalashtirgan Molik, Xoliq va Robb e`kanligiga;
- Alloh ta`oloning uluhiyati ya`ni Alloh ta`oloning yagona ma`bud va undan boshqa barcha ma`budlar botil e`kaniga;
- Alloh ta`oloning ism va sifatlari ya`ni Alloh ta`oloning go`zal ism va sifatlaribor e`kaniga;
- Alloh ta`oloning bu narsalardagi vahdoniyatiga ya`ni uning rububiyat, uluhiyat, ism va sifatlarida yakto e`kaniga iymon keltiramiz.

Alloh ta`olo dedi: "**(U) samovot, yer va ular o`rtasidagi narsalarning robbisidir. Siz unga ibodat qilishda sabrli bo`ling! Siz U uchun ismdosh topa olasizmi?!**". (**Maryam: 65**)

◆ **Biz** Alloh ta`oloning: "**Tirik va bandalari ustida doim turuvchi iloh Allohdir. uni mudroq va uyqu olmas. Yer va Osmondagi barcha narsa uningdir. uning huzurida uning izni bilangina shafoat qilinadi. U bandalarining avvalgi va oxirgi qilgan amallarini bilib turadi. Bandalar U hohlahan narsanigina bila oladilar. Uning Kursiysi Yer va Osmanni o`z ichiga oladi. Ularni himoya qilish Unga qiyin e`mas. U oliv va buyuk zot**" e`kaniga iymon keltiramiz. (**Baqara: 255**)

◆ **Biz** Alloh ta`oloning: "**U g`ayb va zohiriyligi olamlarni biluvchi, Rahmon, Rahiyim bo`lgan iloh - Allohdir. U E`gador, Quddus, Salom, osudalik beruvchi, barcha narsani o`z ilmi bilan qamrab olgan, Aziz, Jabbor - qudratli, Mutakabbir bo`lgan iloh - Allohdir. Men uni mushriklar sifatlayotgan sifatlardan poklayman. U Yer va Osmondagi barcha narsa (Unga) tasbih aytadigan, go`zal ismlar Uning bo`lgan, Aziz, Hakim - Alloh**" e`kaniga iymon keltiramiz. (**Hashr: 22 - 24**)

◆ **Biz** Yer va Osmonnig mulki Alloh ta`oloniki e`kaniga iymon keltiramiz. Alloh ta`olo dedi: "**U hohlagan narsasini yaratadi. U hohlagan kimsasiga qiz, hohlagan kimsasiga o`g`il ato e`tadi. Yoki hohlasa o`g`ilni ham, qizni ham beradi. U hohlagan kimsassini tug`mas qiladi. U biluvchi, qodir zotdir**". (**Shuro: 49, 50**)

◆ **Biz** Alloh ta`oloning: "**Allohnинг о`xshashi yo`dir. U e`shituvchi, ko`ruvchi zotdir. Yer va Osmonlarning kalidlari Uningdir. U hohlagan kishi uchun**

**rizqni keng qilib, o`lchab qo`yadi. U barcha narsani biluvchi"** e`kaniga iymon keltiramiz. (Shuro: 11, 12)

◆ **Biz:** "Yer yuzidagi barcha hayvonning rizqi Alloh ta`oloning zimmasidadir. U zot ularning turar-joylarini ham, borar joylarini ham biladi. Hamma narsa ochiq-ravshan Kitobda" (Hud: 6) - deb iymon keltiramiz.

◆ **Biz:** "G`ayb ochqichlari Allohnинг huzuridadir. Uni Allohnинг o`zигина biladi. U quruqlik va dengizdagi narsalarni va daraxtning tushgan yaproqlarini ham biladi. Hech bir jon e`rtaga nima kasb qilishini va qaysi yerda o`lishini bilmaydi. Alloh barcha narsani biluvchi va ko`rvuchi" (Luqmon: 27) e`kaniga iymon keltiramiz.

◆ **Biz** Alloh ta`olo hohlagan narsasini qachon va qanday hohlasa shunday so`zlay olishiga iymon keltiramiz. Alloh ta`olo dedi: "**Alloh Muso bilan so`zlashdi**" (Niso: 164);

"**Muso belgilangan joyga etib kelganida/ robbisi U bilan so`zlashdi**" (A`rof: 143);

"**Biz Tur tog`ining o`ng tomonidan nido qildik va o`zimizga, pinhon so`zlashib, yaqin qildik**" (Mar`jam: 52).

◆ **Biz:** "**Robbimning so`zlarini yozish uchun dengiz siyoh bo`lsa e`di, uning so`zları bitguniga qadar tugar e`di**" (Kahf: 109);

"**Agar Yer yuzidagi daraxtlar qalam va etti dengiz siyoh bo`lsa, (yozish bilan) Allohnинг so`zları tugamas. Alloh Aziz va Hakim zotdir**" (Luqmon: 27) - deb iymon keltiramiz.

◆ **Biz:** "Alloh ta`oloning so`zları xabar berishda komil, hukmlarda adolatli va iste`molda e`sа go`zal"- deb iymon keltiramiz. Alloh ta`olo dedi: "**Robbingizning so`zları to`g`rilik va adolat yuzasidan komil bo`ldi**" (An`om: 105);

"**Alloh ta`olodan ko`ra rostgo`yroq zot kim?**" (Niso: 87).

◆ **Biz** Qur`on Karim Alloh ta`oloning kalomi e`kani, uni Alloh ta`oloning o`zi haqiqat bilan gapirib, Jibriil alayhissolatu vassalomga otgani, Jibriil alayhissolatu vassalom e`sа Muhammad sollallohu alayhi va sallamning qalbiga olib tushganiga iymon keltiramiz. Alloh ta`olo dedi: "**Siz: "Bu Qur`onni Jibriil robbingiz tarafidan indirdi"- deb ayting**" (Nahl: 102);

**"Qur`on - barcha olamlar robbisi indirgan kitobdir. Uni Jibriil Sizni ogohlantiruvchi bo`lishingiz uchun ochiq arab tilida qalbingizga olib tushdi"** (Shuaro: 192 - 195).

◆ **Biz** Alloh ta`olo o`z maxluqlaridan zoti va sifatlari bilan buyuk e`kaniga iymon keltiramiz. Alloh ta`olo dedi: "**U oliv va buyukdir**" (Baqara: 255);

**"U bandalari ustidan g`olib, xabardor va hakim zotdir"** (An`om: 18).

◆ **Biz:** "Alloh ta`olo **"Yer va osmonni olti kunda yaratdi, so`ngra Arshga ko`tarildi. Va U ishlarni rejalashtiradi"** (Yunus: 3)"- deb iymon keltiramiz.

◆ **Biz:** "Alloh ta`olo Arshi ustida bo`lsada, mahluqlari bilan birgadir. Ya`ni, uning birga bo`lishi, U ularning ahvollarini biladi, so`zlarini e`shtadi, qilayotgan ishlarini ko`radi, ishlarini rejalashtiradi. Muhtojga rizq beradi, mulkni hohlagan kishiga berib, hohlagan kishidan tortib oladi. Hohlagan kishisini aziz va hohlagan kishisini xor qiladi. Barcha yaxshiliklar uning qo`lidaddir. U barcha narsaga qodirdir. Bunday ishlarga qodir bo`lgan zot, garchi bandalaridan yuqorida, Arshining ustuda bo`lsada, o`z maxluqlari bilan birgadir: **"Uning o`xhashi yo`qdir. U e`shtituvchi, ko`ruvchi zotdir"**"- deb fikr qilamiz.

◆ **Biz** Jahmiylar gurudan bo`lgan hululiylar va boshqalar kabi: "Alloh ta`olo Yer yuzida maxluqlari bilan (o`z zoti) bilan birgadir"- demaymiz. Chunki, bu so`zlarni odma kofir yoki adashgan bo`ladi. Zero, bu Alloh ta`oloni Alloh ta`ologa noloyiq sifatlar bilan sifatlash bo`ladi"- deb fikr qilamiz.

◆ **Biz** rasululloh sollallohu alayhi va sallam xabar bergenlaridek: "Alloh ta`olo har kechaning oxirgi uchdan biri qolganida quyi osmonga tushadi va: "Kim menga duo qiladi, men ijobat qilsam? Kim mendan o`z e`htiyojini so`raydi, men bersam? Kim mendan gunohlarini kechirishimni so`raydi, men kechirsam?"- deb aytadi"- deb iymon keltiramiz.

◆ **Biz** Alloh ta`oloning qiyomat kunida bandalari o`rtasini hal qilish uchun kelishiga iymon keltiramiz. Alloh ta`olo dedi: **"Yo`q!! Yer qattiq tebransa, robbingiz va farishtalar saf-saf bo`lib kelsalar va o`sha kunda jahannamni keltirilsa, o`sha kunda inson barcha narsalarni tushunib etadi. Qani e`ndi bu tushunish unga foyda bersa?!"** (Fajr: 21, 22).

◆ **Biz:** "**Alloh ta`oloning hohlagan narsasini qilishga qodir**" (Hud: 107) e`kaniga iymon keltiramiz.

◆ **Biz** Alloh ta`oloning ikki hohishi (irodasi) bor e`kaniga iymon keltiramiz. (Birinchisi): Kavniy (Koinotdagi tabiiy) hohish. Bu iroda bilan Alloh ta`oloning murodi hosil bo`ldi. Biroq, bu irodaning Alloh ta`ologa sevimli bo`lishi lozim

e`mas. Bu iroda faqatgina "mashia" - hohish ma`nosidadir. Alloh ta`olo dedi: "**Agar Alloh hohlasa ular urushmas e`dilar. Biroq, Alloh hohlagan narsasini qiladi**" (**Baqara: 253**);

"... Agar Alloh sizlarni adashtirmoqchi bo`lsa, U sizlarning robbingizdir.." (**Hud: 43**).

(Ikkinchi:) Alloh ta`oloning shar`iy hohishining bo`lishi majburiy e`mas. Bundagi hohish Alloh ta`olo uchun sevimlidir. Alloh ta`olo: "**Alloh sizlarning tavbalaringizni qabul qilishni hohlaydi**" (**Niso: 27**) - dedi.

◆ **Biz** Alloh ta`oloning kavniy va shar`iy hohishlari o`zining hikmatiga bog`liq e`kaniga, uning hukm qilgan kavniy va maxluqlariga sig`inishni yuklagan shar`iy hohishlari, bizlar bilaylik yoki nilmaylik, bir hikmat uchun, yoki hikmat asosiga binoan e`kaniga iymon keltiramiz. Alloh ta`olo dedi: "**(Alloh) hokimlarning hokimi e`masmi?**" (**Tiyn: 8**);

"**Iymon keltirgan xalqlar uchun Allohdan ko`ra hukmi go`zalroq zot bormi?!**" (**Moida: 5**).

◆ **Biz** Alloh ta`oloni sevar e`kanlar, Alloh ham o`z avliyolarini sevishiga iymon keltiramiz. Alloh ta`olo dedi: "**Ayting: "Agar sizlar Alloho ni yaxshi ko`rsangizlar, menga e`rgashinglar. Alloh sizlarni yaxshi ko`radi"**" (**Oli Imron: 31**);

"**Alloh tez kunda o`zi yaxshi ko`radigan va ular ham Alloho ni yaxshi ko`rishadigan xalqlarni keltiradi**" (**Moida: 54**);

"**Alloh ta`olo sabrlilarni yaxshi ko`radi**" (**Oli Imron: 146**);

"**Adolat qilinglar! Allohadolatlilarni yaxshi ko`radi**" (**Hujurot: 9**);

"... Va e`hson qildilar. Alloh ta`olo e`hson qiluvchilarni yaxshi ko`radi" (**Moida: 93**).

◆ **Biz:** "Alloh ta`olo o`zi shariat qilib qoygan amallar hamda so`zlarni yaxshi ko`radi va ta`qiqlagan narsalarini yomon ko`radi"- deb iymon keltiramiz. Alloh ta`olo dedi: "**Agar Alloh ta`ologa kofir bo`lsangizlar, U sizlardan behojatdir. Alloh ta`olo bandalarining kofir bo`lishlariga rozi e`mas. Agar unga shukr qilsangiz, U sizlardan rozi bo`ladi**" (**Zumar: 7**);

"**Lekin, Alloh ta`olo ularning chiqishlarini yoqtirmadi va ularning chiqishlari oldida to`sqliar qilib qo`ydi hamda: "O`tirganlar bilan birga qolinglar!"- deb aytildi**" (**Tavba: 46**).

◆ **Biz:** "Alloh ta`olo mo`minlar va solih amallarni qilgan bandalardan rozi bo`ladi"- deb iymon keltiramiz. Alloh ta`olo dedi: "**Alloh ulardan rozi bo`ldi va**

**ular ham Allohdan rozi bo`ldilar. U (jannat) robbisidan qo`rqqan kishilar uchundir" (Bayyina: 8).**

◆ **Biz:** "Alloh ta`olo kofirlar va g`azabga loyiq bo`lgan boshqa mahluqlarga g`azab qiladi"- deb iymon keltiramiz. Alloh ta`olo dedi: "**... Alloh haqida yomon gumon qilgan kimsalarga yomonlik bo`lsin! Va Alloh ularga g`azab qildi**" (Fath: 6);

**"Biroq, kufrga qalblarini ochgan kimsalarga Allohnинг g`azabi va katta qattiq azoblar bordir"** (Nahl: 106).

◆ **Biz:** "Alloh ta`oloning buyuklik va hurmat bilan sifatlangan yuzi bor"- deb iymon keltiramiz. Alloh ta`olo dedi: "**Buyuklik va hurmat sohibi bo`lgan robbingizning yuzi boqiy qoladi**" (ar-Rohman: 27).

◆ **Biz:** "Alloh ta`oloning saxovatli ikki qo`li bor"- deb iymon keltiramiz. Alloh ta`olo dedi: "**Balki, uning ikki qo`li ochiqdir. U hohlaganidek infoq qiladi**" (Moida: 64);

**"Ular Alloh ta`oloni yaxshi tanimadilar. Yer qiyomat kunida Alloh ta`oloning qo`lida bo`ladi. Samovot e`sа uning o`ng qo`lida bo`ladi. Men Allohnи mushriklar sifatlayotgan sifatlardan poklayman"** (Zumar: 67).

◆ **Biz** Alloh ta`oloning ikki ko`zi bor e`kaniga iymon keltiramiz. Alloh ta`olo dedi: "**Sen kemani bizning k`oz o`ngimizda va vahyimiz bilan yasa**" (Hud: 37).

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam dedilar: "**Alloh ta`oloning hijobi (pardasi) nurdir. Agar U pardasini ochsa, yuzining nurafshonligi maxluqlarining unga tushib turgan ko`zlarini kuydirib yuboradi**".

◆ **"Ahlussunna valjamoa"** Alloh ta`oloning k`ozlari ikkita e`kaniga ijmo` qildilar. Buni rasululloh sollallohu alayhi va sallamdan Dajjal haqida rivoyat qilingan hadis ham quvvatlaydi: "**U (Dajjal) g`ilaydir. Robbingiz g`ilay e`masdir**".

◆ **Biz:** "**Alloh ta`oloni k`ozlar idrok e`ta olmas. Holbuki, U ko`zlarni idrok e`tar. U lutf qiluvchi va xabardor zotdir**" (An`om: 105)- deb iymon keltiramiz.

◆ **Biz:** "Mo`minlar qiyomat kuni robbilarini ko`radilar"- deb iymno keltiramiz. Alloh ta`olo dedi: "**U kunda yuzlar nurafshon bo`lib, robbisiga qarab turadi**" (Qiyomat: 22, 23).

◆ **Biz:** "Alloh ta`oloning komil sifatlari borligi uchun tenggi yo`qdir"- deb iymon keltiramiz. Alloh ta`olo dedi: "**Allohnинг o`xhashi yo`qdir. U e`shituvchi va ko`rvuchi zotdir**" (Shuro: 11).

- ◆ **Biz:** "Hayoti va qoimligi bo`lgani uchun "**Alloh ta`oloni uyqu va mudrash olmas**" (**Baqara: 255**)- deb iymon keltiramiz.
- ◆ **Biz:** "Alloh ta`olo adolatining komilligi sababli hech kimga zulm qilmaydi hamda nazoratchi va bilimi komil bo`lgani uchun bandalari qilayotgan barcha amallardan g`ofil e`masdir"- iymon keltiramiz.
- ◆ **Biz:** "Ilmi va qudrati komil bo`lgani uchun Alloh ta`oloni Yer va Samolardagi biron narsa ojiz qo`ya olmaydi"- deb iymon keltiramiz. Alloh ta`olo dedi: "**Alloh ta`oloning amri - biron narsani "Bo`l!"- deb aytishidir. Bas, u narsa bo`ladi**" (**Ya sin: 82**).
- ◆ **Biz:** "Alloh ta`olo quvvati komil bo`lgani uchun qiyalmaydi va ojiz qolmaydi"- deb iymon keltiramiz. Alloh ta`olo dedi: "**Biz ko`klar, yer va ular o`rtasidagi narsalarni yaratdik va qiyalmadik**".
- ◆ **Biz** Alloh ta`olo va uning rasuli sollalohu alayhi va sallam Alloh ta`olo uchun isbot e`tgan ism va sifatlarning (Alloh ta`oloda) sobit (bor) e`kaniga iymon keltiramiz. Biroq, ikki narsadan e`htiyot bo`lamiz: "**tamsil**" - qalb yoki til bilan "Alloh ta`oloning sifatlari maxluqlarining sifatlariga o`xshaydi"- deb aytishdan hamda "**takyif**" - qalb yoki til bilan "Alloh ta`oloning sifatlari unday, bunday"- deb aytishdan.
- ◆ **Biz** bu yo`lda yurish farz deb o`ylaymiz. Buning sababi, Alloh ta`olo o`zi uchun isbot yoki inkor e`tgan ism va sifatlardan o`zi xabar berdi. U o`zini bandalaridan ko`ra yaxshiroq biladi. Undan ko`ra rostgo`yroq zot yo`qdir. Bandalar bu narsalarni mukammal bilmaydilar. Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning Alloh ta`olo uchun isbot e`tgan sifatlarining xabarini Alloh ta`olo Muhammad sollallohu alayhi va sallamga bildirdi. Rasululloh sollallohu alyhi va sallam o`z robbisini boshqa bandalardan ko`ra yaxshiroq biladilar. Rasulullohsollallohu alayhi va sallam e`sса odamlarning e`ng rostgo`yi, samimiysi va fasohatlisisidir. Alloh ta`olo rasululloh sollallohu alayhi va sallamning so`zlarida ilm, sadoqat va bayonning kamoloti bor. Shuning uchun ham, uni rad e`tish yoki uni qabul qilishda shubhalanishga hech bir uzr yo`qdir.

## Fasl

Biz isbot yoki inkor e`tish nuqtai nazaridan, mufassal yoki umumiy tarzda e`slatib o`tganimiz - Alloh ta`oloning sifatlarini robbimizning Kitobi, payg`ambarimizning sunnatlari hamda bu Ummatning salafi va ulardan so`ng kelgan hidoyat imomlarining yo`liga binoan bayon qildik.

◆ **Biz** Qur`on va sunnat matnlarini o`z zohiriga binoan ijro e`tish va Alloh ta`ologa loyiq bo`lgan haqiqati bilan iste`mol qilishni vojib deb bilamiz hamda bu sifatlarni Alloh va Allohnning rasuli sollalohu alayhi va sallam hohlamagan narsalarga burgan soxtakorlar, Alloh va rasululloh sollallohu alayhi va sallam iroda qilgan ma`nolardan ajratib qo`ygan kimsalar hamda bu sifatlarni o`xshatish va shakllash bilan iste`mol qilgan g`uluv ketuvchilar yo`lidan bezormiz.

◆ **Biz:** "Alloh ta`oloning Kitobi va rasululloh sollallohu alayhi va sallamning sunnatlarida bayon qilingan barcha narsa haqiqat bo`lib, ular bir-biriga zid e`mas"- deb e`tiqod qilamiz. Alloh ta`olo dedi: "**"Ular Qur`onni tadabbur qilmaydilarmi? Agar Qur`on Alloh ta`olodan boshqasining tarafidan nozil qilinsa e`di, ular ko`plab ixtiloflar topgan bo`lur e`dilar"**" (Niso: 82).

Chunki, xabar etkazishdagi ziddiyatlar, xabarlarning ayrimlarini yolg`onga chiqaradi. Bu e`sса Alloh va uning rasuli sollallohu alayhi va sallamda bo`lishi mumkin bol`magan narsalardir. Shuning uchun ham: "Alloh ta`oloning Kitobi va uning rasuli sollallohu alayhi va sallamning sunnatlarida ayrim ziddiyatlar bor"- deb da`vo qilgan kishilar, bu gapni maqsadlari yomon va qalblarida marazlari bo`lgani uchun aytgan bo`ladilar. Bunday odamlar Alloh ta`ologa tavba qilsinlar va zalolatlaridan voz kechsinlar!

"Alloh ta`oloning Kitobi va rasululloh sollallohu alayhi va sallamning sunnatlarida ziddiyatlar bor" deb xayol qilayotgan kimsalar bilimlarining ozligi yoki oz tafakkur qilganliklari uchun bu xatolarga yo`l qo`ydilar. Ular haqiqat ma`lum bo`lishi uchun izlansinlar va tafakkur qilsinlar! Ular izlanishlari oqibbatida haqiqatga e`risha olmasalar, ishni o`z bilimdoniga topshirib, xayolparastlikni tark qilsinlar va bilimni chuqur e`gallaganlar aytganlaridek: "**"Biz unga iymon keltirdik. Uning barchasi robbimiz huzuridandir"**" (Oli Imron: 8)- deb aytsinlar va bilsinlarki, Qur`on va sunnatning ichida ham, ularning o`rtalarida ham ziddiyat va ixtilof yo`qdir.

## Fasl

◆ **Biz** Alloh ta`oloning farishtalariga va ularning: "**"Alloh ta`oloning amriga itoat qilib, undan avval biron so`z so`zlamaydigan mukarram bandalar"**" (Anbiyo: 26, 27) e`kaniga, Alloh ta`olo ularni yaratgani, ular Unga itoat va ibodat qilganlariga iymon keltiramiz. Alloh ta`olo dedi: "**"Ular Allohgа bo`lgan ibodatdan yuz o`girmaydilar va charchamaydilar. Kecha va kunduz tinmay tasbih aytadilar"**" (Anbiyo: 19, 20)

Alloh ta`olo ularni bizdan pardaladi. Goho e`sа ularni ba`zi bandalariga ko`rsatdi. Payg`ambarimiz sollallohun alayhi va sallam Jibriil alayhissolatu vassalomni o`zining yaralgan suratida ufqni to`sib turgan olti yuzta qanoti bilan ko`rdilar. Jibriil alayhissolatu vassalom Mar`yam alayhassolatu vassalomga komil inson suratida namoyon bo`ldi va xitob qildi. Bundan tashqari, Jibriil alayhissolatu vassalom rasululloh sollalohu alayhi vasallamning huzuriga sahobalar bor paytda, oppoq kiyimda, sochlari tim qora, notanish kishi suratida kirib keldi va rasululloh sollalohu alayhi va sallamning oldiga kelib, tizzalarini rasululloh sollalohu alayhi va sallamning tizzalariga tekkizib o`tirdilar. So`ngra, qo`llarini sonlariga qo`yib, rasululloh sollalohu alayhi va sallamga xitob qildilar. Keyin e`sа, rasululloh sollalohu alayhi va sallam ham unga xitob qildilar. Keyin e`sа rasululloh sollalohu alayhi va sallam sahobalarga u kishining Jibriil alayhissolatu vassalom e`kanidan xabar berdilar.

♦ **Biz** farishtalarning tayin qilingan vazifalari bor e`kaniga iymon keltiramiz. Jibriil alayhissolatu vassalom vahiyini, Allah hohlagan payg`ambarga olib tushishga vakil qilingan. Isrofil alayhissolatu vassalom qiyomat kuni o`lish va qayta tirilish uchun surga dam urishga vakil qilingan. Jonlarni olish (o`lim paytida) Malakulmavtga topshirilgan. Jahannam posboni Molikdir. Bundan tashqari ba`zi farishtalar ona qornidagi homilaga, ba`zilari odam farzandini himoya qilishga, ba`zilari e`sа insondan sodir bo`lgan amallarni yozishga vakil qilingan. Har bir shaxsning ikki farishtasi bor. Allah ta`olo dedi: "**Uning o`ng va chap tarafida farishta o`tiradi. U bir so`zni aytsa, uning oldida o`ta qattiq nazoratchi bordir**" (**Qof: 17, 18**)

Ba`zi farishtalar o`lik oldiga kelib, uning robbisi, payg`ambari va dini haqida so`raydilar. "**Allah mo`minlarni hayot dunyosi va oxiratda o`zgarmas so`z bilan sobitqadam qiladi. Va Allah zolimlarni adashtiradi. Allah hohlagan narsasini qiladi**" (**Ibrohiym: 27**)

Ba`zi farishtalar jannah ahliga vakil qilingan. Allah ta`olo dedi: "**Farishtalar ularning huzuriga har bir e`shikdan kirib keladilar va: "Sabr qilganingiz e`vaziga sizlarga tinchlik bo`lsin. Bu qanday joy-a!"- deb aytadilar**" (**Rа`d: 23, 24**)

**Payg`ambarimiz Muhammad sollalohu alayhi va sallam osmonda "al-Baytul-Ma`mur" deya bir uy bor bo`lib, unga har kuni etmish ming farishta kirib, (yana bir rivoyatda) etmish mnig farishta unda namoz o`qib, qayta kira olmasliklarining xabarini berdilar.**

## Fasl

♦ **Biz** Alloh ta`olo o`zining payg`ambarlariga odamlar ziyoniga hujjat bo`ladigan kitoblarni nozil qilganiga iymon keltiramiz. Payg`ambarlar bu kitoblar vositasi bilan odamlarga hikmatlarni o`rgatdilar va ularni shirk balolaridan tozaladilar.

♦ **Biz** Alloh ta`olo har bir rasul bilan kitob indirganiga iymon keltiramiz. Alloh ta`olo dedi: "**Biz e`chilarni hujjatlar bilan yubordik va odamlar adolat bilan turishlari uchun ular bilan birga kitob va tarozuni nozil qildik**" (**Hadicid: 25**)

Alloh ta`olo tomonidan yuborilgan kitoblarning bizga ma`lum bo`lganlari quyidagilardir:

**1. Tavrot.** Tavrot - Alloh ta`olo Muso alayhissolatu vassalomga nozil bo`lgan kitob bo`lib, Isroil o`g`illariga yuborilgan kitoblarning e`ng buyugidir. Alloh ta`olo dedi: "**Biz Tavrotni nur va hidoyatni o`z ichiga olgan holatida nozil qildik. U bilan Alloh ta`ologa bo`yinsungan payg`ambarlar, olimlar va donishmandlar o`zlariga omonat qo`yilgan Allohnning KItobi bilan yahudiylar ustidan hukm qiladilar**" (**Moida: 44**).

**2. Injil.** Alloh ta`olo Injilni Iyso alayhissolatu vassalomga indirdi. Injil Tavrotni tasdiqlab va to`ldirib kelgan. Alloh ta`olo dedi: "**Biz Iyso (alayhissolatu vassalom) ga ichida hidoyat va nur bo`lgan, o`zidan avvalgi Tavrotni tasdiqlagan, taqvodorlar uchun kidoyat va mav`iza bo`lgan holida Injilni berdik**" (**Moida: 44**);

".. Sizlar uchun harom qilingan ba`zi narsalarni halol qilish uchun (Injilni indirdi)" (**Oli Imron: 50**).

**3. Zabur.** Alloh ta`olo Zaburni Dovud alayhissolatu vassalomga nozil qildi.

**4. Qur`on Karim.** Alloh ta`olo Qur`on Karimni payg`ambarlarning e`ng so`nggisi Muhammad sollallohu alayhi va sallamga nozil qildi. Alloh ta`olo dedi: "**Ramazon oyi odamlar uchun hidoyat va hidoyatning bayoni hamda botil bilan haqiqat o`rtasini ajratib tashlashni bayon qilingan Qur`on Karim nozil bo`lgan oydir**" (**Baqara: 185**).

Qur`on Karim "**o`zidan avvalgi kitobni tasdiqlovchi va uni o`z ichiga oluvchi bo`lib**" (**Moida: 48**) nozil qilingan. Alloh ta`olo Qur`on Karim vositasi bilan avvalgi barcha kitoblarni bekor qildi hamda Qur`onni soxtalashtiruvchi qo`llardan himoya qilishni o`z zimmasiga oldi. Alloh ta`olo dedi: "**Biz sizga Qur`onni indirdik va uni biz himoya qilamiz**" (**Hijr: 9**)- dedi. Chunki, Qur`on arim qiyomat kuniga qadar maxluqlarning ziyoniga hujjat bo`lib qoladi.

Ammo Qur`on Karimdan avval nozil bo`lgan kitoblar, uning ichidagi hukmlarni bekor qiladigan hamda undagi o`zgartish va soxtakorlikni bayon qilib beradigan kitoblar nozil bo`lganidan boshlab o`z kuchini yo`qotadi. Shuning uchun ham avvalgi kitoblar ma`sum qolmadi. Balki, ularga turli o`zgartishlar va qo`shimchalar qo`shilib ketdi. Alloh ta`olo dedi: "**Yahudiylarning ba`zilari so`zlarni o`z o`rnidan o`zgartdilar**" (Niso: 46);

"**KItobni oz pul e`vaziga sotish uchun o`z qo`llari bilan yozib, keyin: "Bu Alloh huzuridan kelgan"- deb aytgan kishilarning hollariga voylar bo`lsin! Qo`llari yozgan narsalar va kasb qilgan narsalari uchun ularning hollariga voylar bo`lsin!"** (Baqara: 79);

"Ayting: "**Muso (alayhissolatu vassalom) odamlar uchun nur va hidoyat qilib olib kelgan va sizlar o`z hohishlaringizga to`g`ri keladigan hukmlarni ko`rsatib, t`og`ri kelmaydiganini ko`rsatmaydigan daftар qilib olganingiz kitobni kim nozil qildi?!"**" (An`om: 91);

"**Kitob ahllaridan bir guruh kitob deb gumon qilib, Kitobni o`zgartmoqdalar.** U - Kitob e`masdir. Ular uni Allohnинг huzuridan deb aytmoqdalar. Alloh ta`olo kitob, hukm va payg`mbarlik ato e`tgan kishining odamlarga: "**Allohn ni qo`yib menga banda bo`linglar!**"- deb aytishi mumkin e`masdir" (Oli Imron: 78, 79);

"**Hoy kitob ahllari, bizning payg`mbarimiz sizning oldingizga kitobdan yashirgan ko`p narsalaringizni bayon qilish uchun keldi...** "**Alloh - Masih ibn Maryamdir**"- deb aytgan kishilar kofir bo`ldilar"" (Moida: 15, 16).

## Fasl

◆ **Biz** Alloh ta`olo o`z maxluqlariga e`lchilarni yuborgan e`kaniga iymon keltiramiz. Alloh ta`olo dedi: "**(Alloh ta`olo) payg`ambarlarni yuborganidan so`ng, odamlar uchun Allohnинг ziyoniga hujjat bo`lmasin uchun jannatdan xushxabarchi va jahannamdan ogohlantiruvchi qilib e`lchilarni yubordi. Alloh aziz va hakim zotdir**" (Niso: 165).

◆ **Biz** payg`ambarlarning avvali Nuh va oxiri Muhammad sollallohu alayhima va sallam e`kaniga iymon keltiramiz. Alloh ta`olo dedi; "**Biz sizga Nuh va undan keyingi payg`ambarlarga vahiy qilgandek, vahiy qildik**" (Niso: 163);

"**Muhammad (sollallohu alayhi va sallam) Sizlarning e`r kishilaringizning otasi e`mas.** Balki, U Allohnинг e`lchisi va payg`ambarlarning so`nggisidir" (Ahzob: 40).

◆ **Biz** payg`ambarlarning e`ng afzali Muhammad sollalohu alyhi va sallam, so`ngra Ibrohiym, so`ngra Muso, so`ngra Iyso alayhimussolatu vassalom e`kaniga iymon keltiramiz.Ularning barchasi ushbu oyatda zikr qilingan: "**Biz payg`ambarlardan: Sizdan, Nuh, Ibrohiym, Muso va Iyso ibn Mar`yamdan ahdlarini oldik. Biz ulardan qattiq ahdlarni oldik**" (Ahzob: 7).

◆ **Biz:** " Muhammad sollalohu alayhi va sallam olib kelgan shariat quyidagi oyatda zikr qilingan payg`ambarlarning olib kelgan shariatlarida bor bo`lgan barcha fazilatlarni o`z ichiga oladi"- deb e`tiqod qilamiz. Alloh ta`olo dedi: "**(Alloh ta`olo) sizlarga Nuhga, Sizga vahiy qilganimiz, Ibrohiym, Muso va Iysoga vasiyat qilganimiz: "Dinni barpo qilinglar va dinda tarqoq bo`lmanglar!"- deb shariat qildi**" (Shuro: 13).

◆ **Biz** barcha payg`ambarlar yaratilganyaralmish bo`lib, ularda biron ta ham rububiyat xususiyati yo`q e`kaniga iymon keltiramiz. Alloh ta`olo rasullarning birinchisi Nuh alayhissolatu vassalom haqida shunday dedi: "**(Nuh): "Men sizlarga: "Allohnинг xazinalari mening mening huzurimda, men farishtaman"- deb aytmayman. Men g`ayb ishlarini bilmayman"- (dedi)"** (Hud: 31).

**"Men, hatto, o`zim uchun foyda va zararkeltirishga qodir e`masman. Faqatgina, Alloh hohlasagina keltira olaman"** (A`rof: 188);

**"Ayting: "Men sizlar uchun zarar berish yoki sizlarni to`g`ri yo`lga solishga e`ga e`masman"** (Jin: 21).

◆ **Biz** payg`ambarlarning banda e`kanliklari, biroq, Alloh ta`olo ularni payg`ambarlik bilan mukarram qilgani va ularni bandalikning e`ng e`ng oliy maqomi va maqtovlar bilan sifatlagan e`kaniga iymon keltiramiz. Alloh ta`olo ularning e`ng birinchilari Nuh alayhissolatu vassalom haqida: "**Hoy biz kemada Nuh bilan birga qutqargan kishilarining surriyotlari, Sizlar ham Nuh olib kelgan yo`lga e`rgashinglar!** Chunki, Nih shukr qiluvchi bandalardan e`di" (Isro` : 3) - deb, so`ngra payg`ambarlarning e`ng oxirgisi Muhannad sollalohu alayhi va sallam haqida: "**Barcha olamlarga ogohlantiruvchi bo`lishi uchun o`z bandasiga Qur`onni indirgan zot buyuk bo`ldi**" (Furqon: 1) der e`kan, boshqa payg`ambarlar haqida shynday dedi: "**Siz bizning qudrat va ong e`galari bo`lgan bandalarimiz: Ibrohiym, Ishoq va Ya`qublarni e`slang**" (Sod: 45); "**Siz, bizning bandamiz, qudrat sohibi Dovudni e`slang. U obid e`di**" (Sod: 17).

**"Va biz Dovudga Sulaymonni ato e`tdik. U qandayam yaxshi banda va obid e`di" (Sod: 30).**

Alloh ta`olo Iyso alayhissolatu vassalom haqida: "**U biz in`om e`tgan va Isroil o`g`illariga namuna qilgan bir bahda, xolos**" (Zuxruf: 59).

◆ **Biz** Alloh ta`olo Muhammad sollalohu alayhi va sallamning payg`ambarligi bilan payg`ambarlikni tugatgani va Uni butun bashariyat uchun yuborgan e`kaniga iymon keltiramiz. Alloh ta`olo dedi: "**Ayting: "Hoy odamlar men samovot va yerning mulki qo`lida bo`lgan, tiriltiruvchi va o`ldiruvchi, o`zidan boshqa iloh bo`lman Allohning barchangiz uchun yuborilgan e`lchisiman. Bas, sizlar Allohga, uning Allohga va uning so`zlariga iymon keltirgan e`lchisiga iymon keltiringlar! Unga e`rgashinglar, shoyad hidoyat toparsizlar"** (A`rof: 158).

◆ **Biz** rasululloh sollalohu alayhi va sallam olib kelgan shariat, Alloh ta`olo bandalari uchun rozi bo`lgan va ulardan undan boshqasini qabul qilmaydigan Islom dini e`kaniga iymon keltiramiz. Alloh ta`olo dedi: "**Allohning huzuridagi din - Islomdir**" (Oli Imron: 19);

**"Bugun men sizlarga diningizni komil, ne`matlarimni to`la qildim va Islomni din deb ixtiyor e`tdim"** (Moida: 3);

**"Islomdan boshqa (narsani) din deb izlagan kishidan bu izlagan narsasi qabul qilinmas. Va u oxiratda ziyonkorlardandir"** (Oli Imron: 85).

◆ **Biz:** "Bugun Islom dinidan boshqa Alloh ta`olo huzurida maqbul bo`lgan yahudiy, masihiy va boshqa dinlar bo`lishi mumkin, deb o`ylagan kishi kofir bo`lib, undan tavba qilishi talab qilinadi. Agar tavba qilsa yaxshi, bo`lmasa Qur`onni rad e`tgani uchun uchun martad bo`lib, qayl qilinadi"- deb aytamiz.

◆ **Biz:** "Muhammad sollalohu alayhi va sallamning payg`ambarligi barcha insoniyat uchun e`kaniga kofir bo`lgan kishi barcha payg`ambarlarga, shu jumladan, o`zi iymon keltirib, e`rgashayotgan payg`ambariga ham kofir bo`libdi"- deb aytamiz. Alloh ta`olo dedi: "**Nuhning xalqi payg`ambarlarni rad e`tdi**" (Shuar: 105).

Alloh ta`olo Nuh alayhissolatu vassalomdan avval biron bir payg`ambar o`tmagan bo`lsada, ularni barcha payg`ambarlarni rad e`tgan deb hisobladi. Alloh ta`olo dedi: "**Alloh va uning payg`ambarlariga kofir bo`lgan, Alloh va uning payg`ambarlari o`rtasini ajratmoqchi bo`lgan hamda "Biz ularning ba`zilariga iymon keltirib, ba`zilariga kofir bo`lamiz"**- deb, kufr va iymon

**o`rtasida bir (yangi) yo`l qilmoqchi bo`lgan kimsalar, o`shalargina haqiqiy kofirlardir. Biz ularga xo`rlovchi azobni tayyorlab qo`ydirik" (Niso: 150, 151).**

◆ **Biz:** "Muhammad sollallohu alayhi va sallamdan so`ng payg`ambar bo`lmasligiga, undan so`ng payg`mbarlikni da`vo qilgan yoki payg`ambarlikni da`vo qilgan kishini tasdiqlagan odam kofirdir. Chunki, u Allohnin, uning rasuli va musulmonlar ijmo`sini rad e`tgan bo`ladi"- deb iymon keltiramiz.

◆ **Biz:** "Muhammad sollallohu alayhi va sallamning ummati ichida payg`ambarimizdan ilm, da`vat va musulmonlar ustidan etakchi bo`lib qolgan xalifalari bor. Ularning afzallari Abu Bakr Siddiq, keyingisi Umar ibn Xattob, keyingisi Usmon ibn Affon, keyingisi Aliy ibn Abu Tolibdir (Alloh ularning barchasidan rozi bo`lsin). Ular xalifa bo`lib qoldilar. etuk hikmat sohibi bo`lgan Allah ta`olo e`ng yaxshi asr uchun ulardan ko`ra yaxshiroq va xalifalikka loyiqliq bo`lgan boshqa kishilar bo`lsa e`di, ularni tanlab olmagan bo`lar e`di"- deb iymon keltiramiz.

◆ **Biz:** "Xalifalar bir-birlaridan ba`zi xususiyatlarda ustun bo`lsalarda, ustun bo`lganlari mutlaq fazlga e`ga e`masdir. Chunki, mutlaq fazl Allah ta`ologagini xos bo`lib, uning sabablari ko`p"- deb iymon keltiramiz.

◆ **Biz:** "Bu Ummat ummatlarning e`ng xayrlisi va Allah ta`olo huzuridagi e`ng mukarramidir"- deb iymon keltiramiz. Allah ta`olo dedi: "**Sizlar osamlar uchun chiqarilgan yaxshilikka buyurib, yomonlikdan qaytaradigan va Allahga iymon keltirgan ummat bo`ldingiz**" (Oli Imron: 110).

◆ **Biz:** "Bu Ummatning ichidagi e`ng yaxshi kishilar sahabalar, tobiinlar va tobiinlarga e`rgashgan kishilardir. Bu ummat ichida bir toifa haqiqat uzra qoladi. ularni Allohnin amri kelguniga qadar yordamsiz tashlab qo`yan yoki ularga muxolif bo`lgan kishilar ularga zarar bera olmaydilar"- deb iymon keltiramiz.

◆ **Biz:** "Sahobalar o`rtasida bo`lib o`tgan fitnalar ularning ijтиҳодлардаги та`вилари сабабли bo`lgan. Ularning qaysi бiri to`g`ri ijтиҳod qilgan bo`lsa, унга bir ajr bo`ladi va uning gunohi kechiriladi"- deb e`tiqod qilamiz. Biz: "Ularning yomonliklaridan ko`z yumish, ularni maqtov va sharaf bilan tilga olish va qalblarimizni ularga bo`lgan gina-adovatlardan pok tutishimiz kerak"- deb aytamiz. Chunki, Allah ta`olo bunday dedi: "**Ichingizdagи Makka fathidan avval infoq va jihod qilgan kishilar(ga boshqa kishilar) teng kela olmas. Ularning Makka fathidan so`ng infoq va jihod qilgan kishilardan ko`ra maqomlari buyukdir. Allah ularning barchasiga yaxshilikni va`da qildi**" (Hadid: 10).

Allho ta`olo biz (musulmonlar haqida) shunday dedi: "Ulardan so`ng kelgan avlodlar: **"Robbimiz, bizlarni va bizlardan avval yashab o`tgan do`stlarimizning gunohlarini kechir! Bizlarning qalblarimizda mo`minlarga nisbatan gina-kudurat qo`yma! Robbimiz, sen rahmli va mehribon zotsan"- dedilar"** (Hashr: 10).

## Fasl

- ◆ **Biz** odamlar ne`matlar yoki azoblar diyoriga kirish uchun qayta tirilishadigan oxirgi kun - qiyomat kuniga iymon keltiramiz.
- ◆ **Biz** Isrofil alayhissolatu vassalom surga ikkinchi marta dam urganida o`liklarning qayta tirilishlariga iymon keltiramiz. Alloh ta`olo dedi: **"Surga dam urildi va osmondagi, Alloh hohlagan maxluqlardan boshqa, barcha zotlar behush bo`lib yiqildilar. So`ngra, ikkinchi marta dam urildi. Banogoh ular tik qarab turadilar** (Zumar: 68).

Odamlar qabrlaridan poyafzalsiz - yalangoyoq, kiyimsiz - yalang`och, xatnasiz - bus-butun holatlarida robbilari uchun chiqib keladilar. Alloh ta`olo dedi: **"Sizlarni avval yaratganimiz holga qaytaramiz. Bu biz uchun zimmamizdagи va`daddir. Biz shunday qilguvchimiz"** (Anbiyo: 104).

- ◆ **Biz** bandalarning o`ng, chap va orqa taraflaridan beriladigan nomalariga iymon keltiramiz. Alloh ta`olo dedi: **"Nomasi o`ng tarafdan berilgan kishi engil hisob qilinadi va o`z ahliga xursand bo`lib qaytadi. Ammo nomalar orqa tarafdan berilgan kishi o`z halokatini chaqiradi va jahannamga tashlanadi"** (Inshiqoq: 7 - 12);

**"Biz har bir insonning qilgan amalini o`z bo`yniga ilib qo`yanmiz. (Uning amali o`zidan ajralmasdir). Va qiyomat kunida biz unga ro`baro` bo`ladigan ochiq kitob - amal nomalarini chiqarib ko`rsatamiz. Unga deyiladiki: "Amal nomangni o`qi! Bugun nafsing o`zingga qarshi etarli hisobchidir""** (Isro` : 13, 14).

- ◆ **Biz** qiyomat kunida hech bir maxluqqa zulm qilmaydigan tarozu qo`yilishiga iymon keltiramiz. Alloh ta`olo dedi: **"Kim zarracha yaxshilik qilsa, uni ko`rar. Kim zarracha yomonlik qilsa, uni ko`rar"** (Zilzol: 7, 8);

**"Tarozulari(ning savob pallasi) og`ir kelgan kishilar najot topuvchilardir. Tarozulari(ning savob pallasi) engil jkelgan kishilar, ana o`shalar o`z jonlariga jabr qilgan va jahannamda mangu qoladigan kishilardir.** Ularning

**yuzlarini olov kuydiradi va badbashara qilib tashlaydi"** (Mo`minuvn: 102 - 104);

**"Kim yaxshilikni olib kelsa, unga u yaxshilikning o`n barobaricha savoblar bor. Kim yomonlikni olib kelsa, yomonligi miqdoricha jazolanadi"** (An`om: 160).

◆ **Biz** rasululloh sollallohu alayhi va sallamning o`zigagina berilgan katta shafoatga iymon keltiramiz. Alloh ta`oloning huzurida, Alloh ta`oloning izni bilan, boshlariga toqat qilib bo`lmaydigan musibat etganida Odam, Nuh, Ibrohim va Iyso alayhimussolatu vassalomlarning oldilariga borganlaridan so`ng, huzuriga kelgan odamlar o`rtasida hukm qilishlari uchun rasululloh sollallohu alayhi va sallamga ushbu shafoat beriladi.

◆ **Biz** jahannamga kirgan mo`minlarni jahannamdan chiqarish uchun beriladigan shafoatga iymon keltiramiz. Bu shafoat - payg`ambarimiz (Muhammad) sollallohu alayhi va sallam, boshqa payg`ambarlar va mo`minlar va farishtalarga ham beriladi. Bundan tashqari, Alloh ta`oloning o`zi ham shafoatsiz, o`z fazli va karami bilan ko`p mo`min bandalarini chiqarishiga iymon keltiramiz.

◆ **Biz** rasululloh sollallohu alayhi va sallamga berilgan Havzga iymon keltiramiz. Uning suvi sutdan oq, asaldan shirin, mushk-anbardan xushbo`y, uzunligi va e`ni bir oylik yo`l, idishlari chiroyi va ko`pligida samo yulduzlari kabitidir. Mo`minlra bu Havzga keladilar. Undan suv ichgan kimsa hech qachon chanqamaydi.

◆ **Biz** jahannam uzra qurilgan ko`prik - Sirotg`a iymon keltiramiz. Uning ustidan odamlar qilgan amallariga qarab: ba`zilar chaqnagan chaqmoqdek, ba`zilar e`sgran shamoldek, ba`zilar uchgan qushdek o`tib boradilar. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam e`sса ko`prik boshida turib: "**Robbim, qutqar**" - deya yolborib turadilar. Ba`zi bandalarning (yaxshi) amallari oz bo`lgani uchun ko`prik ustidan e`maklab o`tadilar. Sirotning ikki tarafida Alloh ta`olo tarafidan buyurilgan osig`liq changaklar bor. Ular amr e`tilgan odamni tutib qoladilar. Sirotdan o`tgan odam qutulibdi, yiqilgan odam jahannam uchun tutilibdi.

◆ **Biz** qiyomat kuni va uning dahshatlari haqida Allohnинг Kitobi va rasululloh sollallohu alayhi va sallamning sunnatlarida kelgan har bir xabarga iymon keltiramiz. Alloh bizni u kundagi balolardan saqlasin!

◆ **Biz** rasululloh sollaohu alayhi va sallamning o`zigagina berilgan va jannah ahllarining jannahga kirishlari uchun qiladigan shafoatlariga iymon keltiramiz.

◆ **Biz** jannah va jahannamning bor e`kaniga iymon keltiramiz. Jannah - Alloh ta`oloning taqvoli mo`min bandalari uchun tayyorlab qo`yan, qulqoq e`shitmagan

va insonning xayoliga kelmagan turfa ne`matlar bo`lgan diyordir. Alloh ta`olo dedi: "**Hech bir jon qilgan amallari e`vaziga o`zi uchun berkitib qo`yilgan quvonchlarni bilmaydi**" (**Sajda: 17**).

Jahannam e`sа, zолим кофірлар учун Аллоҳ та`оло таъярлаб қо`йган инсон xayoliga kelmagan turfa qiyonoqlar diyordir. Alloh ta`olo dedi: "Biz zolimlar учун jahannamni tayyorlab qo`ydikki, олови ularni o`rab turadi. Ular yordam istasalar, yuzlarni pishiradigan suvlар beriladi. Bu qanday yomon sharob va yomon joy-a?" (**Kahf: 29**).

Jannah va jahannam hozir ham bor va hech qachon foniy bo`lmaydi. Alloh ta`olo dedi: "**Alloh Allohga iymon keltirib, solih amallarni qilgan kishilarni ostlaridan daryolar oqib o`tadigan va kirganlar (mangu) qoladigan jannahlarga kiritadi**" (**Taloq: 11**);

"**Alloh ta`olo kofirlarni la`nat qildi va ular uchun mangu qolishadigan jahannamni tayyorlab qo`ydi. Ular u yerda yordamchi ham, do`st ham topa olmaslar. Ularning yuzlari olovga burilgan kunda: "Allohga va payg`ambarga itoat e`tsak koshki e`di" deydilar**" (**Zuxruf: 64, 65**).

◆ **Biz:** "Jannah - Allohnинг Kitobi va sunnatda ochiq yoki sifatlar bilan ishora qilingan kishilar uchundir"- deb guvohlik beramiz. Abu Bakr, Umar, Usmon, Aliy va ulardan boshqa rasululloh sollallohu alayhi va sallam xabar bergan kishilar учун aniq, barcha taqvoli va iymonli kishilar учун e`sа belgilari bilan guvohlik beramiz.

◆ **Biz:** "Jahannam Allohnинг Kitobi va sunnatda aniq va belgilari bilan lshora qilingan kishilar uchundir"- deb guvohlikberamiz. Abu Lahab, Amr ibn Luhay Huzoiy va boshqalarga aniq, har bir kofir, katta shirk amalini qilgan mushrik va munofiq учун e`sа belgilari bilan guvohlik beramiz.

◆ **Biz** qabr sinovi (fitnasi)ga iymon keltiramiz. U e`sа mayyit-o`likning o`z qabrida robbisi, dini va payg`ambari haqida so`roqqa tutilishidir. Alloh ta`olo dedi: "**Alloh ta`olo iymon keltirgan kishilarni bu dunyo va oxiratda o`zgarmas so`z bilan sobitqadam qiladi**" (**Ibrohim: 27**).

Mo`min berilgan savollarga: "**Robbim - Alloh, dinim - Islom va payg`ambarim - Muhammad sollallohu alayhi va sallamdir**"- deb javob beradi. Kofir e`sа: "Bilmauman, odamlar nima desalar, men ham o`sha so`zlarni aytar e`dim"- deydi.

◆ **Biz:** "Qabr ne`matlari mo`min uchundir"- deb iymon keltiramiz. Allho ta`olo dedi: "**Gunohdan pok hollarida jonlari olinmisht insonlarga farishtalar**:

**"Sizlarga tinchlik bo`lsin! Qilgan amallaringiz e`vaziga jannatga kiringlar"-deydilar" (Nahl: 32).**

◆ **Biz:** "Qabr qiynoqlari zolim kofirlar uchundir"- deb iymon keltiramiz. Alloh ta`olo dedi: "Siz zolimlarni o`lim talvasasida ko`rsangiz e`di. Farishtalar qo`llarini ochib: **"Jonlaringizni chiqaringlar! Allohgaga nohaq so`zlarni aytganingiz va uning oyatlaridan yuz o`girganingiz uchun bugun xorlik azobi bilan "mukofotlanasizlar"- deydilar"** (An`om: 93).

◆ **Bu** to`g`rida ko`plab hadislar bor. Mo`min Allohning Kitobi va sunnatda kelgan bunday g`aybiy ishlarga iymon keltirishi va bu dunyoda o`rgangan narsalari bilan unga qarshi cqiqlasligi kerak. Chunki, o`rtalarida katta farq bo`lsada, oxirat ishlari dunyo ishlari bilan qiyoslanmaydi. **Alloh gunohning barcha yo`llaridan saqlasin!**

## Fasl

◆ **Biz** taqdir (qadar)ning yaxshi va yomoniga iymon keltiramiz. Taqdir Alloh ta`oloning o`tgan ilmi va taqozo e`tgan hikmati bilan maxluqlar uchun qo`ygan o`lchovidir.

Taqdirning to`rt bosqichi bor:

### ◆ **Birinchi bosqich: Ilm.**

Biz Alloh ta`oloning barcha narsalarni biluvchi e`kaniga, U bo`lgan va bo`ladigan barcha narsalarni bilgan, Uning bilishi azaliy va abadiy bo`lib, bo`lmaganidan so`ng bilim yoki bilganidan so`ng unutish bo`lmasligiga iymon keltiramiz.

### ◆ **Ikkinci bosqich: Yozish.**

Biz Alloh ta`olo qiyomat kuniga qadar bo`ladigan barcha narsalarni "Lavhul-Mahfuz"ga yozib qo`ygan e`kaniga iymon keltiramiz. Alloh ta`olo dedi: **"Siz Alloh ta`olo Yer va Osmondagи barcha narsalarni bilishi, bu e`sа Kitobda yozilgan hamda bu ishlар Allohga oson e`kanini bilmaysizmi?!"** (Haj: 70).

### ◆ **Uchunchi bosqich: Hohish.**

Biz: "Alloh ta`olo samovot va yerdagi barcha narsani o`z hohishi bilan yaratdi. Barcha narsa uning hohishi bilan bo`ladi. Alloh hohlagan narsa bo`ladi va hohlmagan narsa bo`lmaydi"- deb iymon keltiramiz.

### ◆ **To`rtinchi bosqich: Yaratish.**

◆ **Biz:** "Alloh ta`olo barcha narsaning yaratuvchisi, barcha narsaga vakil va samovot va yerning kalidlari uning" e`kaniga iymon keltiramiz.

**◆Bu to`rt bosqich Alloh ta`olo va bandalari tomonidan sodir bo`ladigan barcha narsalarni o`z ichiga oladi.**

Bandalar tomonidan sodir e`tilgan va e`tilmagan ishlar va so`zlar Alloh uchun ma`lum, Allohnинг huzurida yozilgan, Alloh uni hohlagan va yaratgandir. Alloh ta`olo dedi: "Sizlarning ichingizdagи hohlaganingiz to`g`ri yo`lda yursin! Sizlar olamlar robbisi - Alloh hohlasagina hohlaysizlar" (Takvir: 28, 29);

"Agar Alloh hohlasa bir-birlariga urush qilmas e`dilar. Lekin, Alloh hohlaganini qiladi" (Baqara: 253);

"Agar Alloh hohlamasa ular qilmas e`dilar. Ularni o`z iftirolari bilan qo`ying" (An`om: 137);

"Aloh sizlarni va sizlar qilgan amallarni yaratdi" (Soffot: 96).

◆ **Biz**, shu bilan birga, Alloh ta`olo bandaga amal sodir bo`ladigan hohish va ixtiyorni bergenligiga iymon keltiramiz.

Bandaning ishlari o`z hohish va ixtiyori bilan sodir bo`lishiga quyidagi dalillar bor:

◆**Birinchi: Alloh ta`oloning so`zları.**

""Ziroatgohingiz"ga hohlagan tarafingizdan yaqinlik qiling!" (Baqara: 223);

"Agar hohlasalar e`di, tayyorgarlik ko`rar e`dilar" (Baqara: 286).

Alloh ta`olo banda uchun hohish-istak va tayyorlanish haqqini isbot e`tdi.

◆**Ikkinci: Bandaga amr va ta`qiqni yo`llash.**

Agar bandaning ixtiyori va hohishi bo`lmasa e`di, taklif - majburiyat bo`lar e`di.

Bu e`sа Alloh ta`oloning hikmati va rahmati taqozo e`tmagan ishdир.

Alloh ta`olo dedi: "Alloh har bir jonga o`z toqatiga loyiq majburiyat bergen" (Baqara: 286).

◆**Uchunchi: Yaxshilik qilgan kishini qilgan yaxshiligi uchun maqtash, yomonlik qilgan kishini qilgan yomonligi uchun mazammat qilish va har ikkisiga loyiq bo`lgan mukofortlarni berish.**

Agar amal bandaning istak-hohishi bilan bo`lmasa e`di, yaxshilik qilgan kishini maqtash abas, yomonlik qilgan kishini jazolash zulm bo`lgan bo`lar e`di. Alloh bunday abas va zumdan pokdir.

◆**To`rtinchi: Alloh ta`olo "Xabarchi va ogohlantiruvchi bo`lagn payg`ambarlarni, ulardan so`ng odamlar uchun Allohnинг ziyoniga hujjat bo`lmasin uchun" (Niso: 165) yubordi.**

Agar bandaning qilgan ishlari o`z istak-hohishi bilan bo`lmasa e`di, payg`ambarlarni yuborish bilan hujjat botil bo`lmasa e`di.

◆ **Beshinchi:** Har bir odam o`zining qilgan yoki tark e`tgan ishlarini biron bir majbur qilgan kuchni his e`tmay bajaradi. U o`z hohishi bilan turadi, o`tiradi, kiradi, chiqadi va safar qiladi. Biroq, bu ishlarida zo`rlovchi kuchni his e`tmaydi. Balki, u voqe`da bir ishni o`z hohishi bilan biron bir kuch ta`siri ostida majburlik bilan, qilish o`rtasini butunlay ajrata oladi.

Xuddi shiningdek, shariat ham bu ikki holat o`rtasini hikmat bilan ajratdi va Allohning haqqiga majburlik ostida ginohkor bo`lgan bandaga jazo belgilamadi.

◆ **Biz:** "Osiy odam o`z osiyligiga Allohning taqdirini hujjat qilishi mumkin e`mas"- deb aytamiz. Chunki, osiy Alloh ta`oloning osiylik qilishini taqdir qilishini bilishdan avval o`z ixtiyori bilan qiladi. Zero, har bir kimsa Alloh ta`oloning taqdirini sodir bo`lganidan so`nggina biladi. Alloh ta`olo dedi: "**Hech bir jon e`rtaga nima kasb qilishini bilmaydi**" (**Luqmon: 34**).

Shunday e`kan, osiylar Allohning taqdirini o`z gunohlariga hujjat qilishlari to`g`ri bo`ladimi? Holbuki, Alloh ta`olo bu hujjatni bekor qilib shunday dedi:

**"Mushriklar tezda: "Alloh hohlamasa, biz va bobolarimiz Allohga sherik qilishmas va biron narsani harom qilmagan bo`lur e`dik"- dedilar. Ulardan avval yashab o`tgan kishilar ham shunday degan e`dilar. Biz ularga o`z balolarimizni totiddik. Siz aytинг: "Sizlarning bizlar uchun chiqaradigan ilmingiz bo`lsa, chiqaringlar! Sizlar gumongagina e`rgashayapsizlar. Sizlar nima deganingizni bilmaysizlar"" (An`om: 148).**

◆ **Biz** taqdirni hujjat qilib, osiylik qilgan kishiga shunday deymiz: "Sen nega Allohning taqdirini hujjat qilib, senga farz qilingan toat-ibodatga kirishmaysan? Zero, bu bilan sening osiyligingga taqdirni hujjat qilishing o`rtasida nomailum taqdirga nisbatan hech qanday farq yo`q. Shuning uchun ham rasululloh sollallohu alayhi va sallam sahobalarga har bir kishining jannat va jahannamdagи joyi belgilab qo`yilganining xabarini bergenlarida sahobalarning: "Unday bo`lsa u narsaga suyanib, amal qilmaylik"- degan so`zlariga rasululloh sollallohu alayhi va sallam: "**Yo`q, amal qilinglar! Har bir kishi o`zi yaratilgan (joy) uchun muyassar qilinadi**"- dedilar".

◆ **Biz** taqdirni hujjat qilib osiylik qilgan kishiga shunday deymiz: "Agar sen Makka shahriga bormoqchi bo`lsang va unga olib boradigan ikki yo`l bo`lsa, ishonchli odamlardan biri: "Bu yo`l mashaqqatli, bunisi e`sa qulay" desa, tabiiyki,

ikkinchisini tanlaysan. "Menga taqdir qilingan yo`l shu e`kan"- deb birinchi yo`ldan ketmaysan. Agar ketsang, telbalar safiga kirib qolasan".

◆ **Biz** taqdirni hujjat qilib, osiylik qilgan kishiga shunday deymiz: "Agar senga ikki ish taklif qilinib, ulardan biri ikkinchisidan ko`ra tartibliroq bo`lsa, uni tanlaysan. Shunday e`kan, nega e`ndi oxirat uchun ishslash maydonida e`ng pastkash yo`lni tanlaysan".

◆ **Biz** yana shunday deymiz: "Agar bemor bo`lsang tabiblar e`shagini qoqasan va qilingan jarrohiy amaliyot (operatsiya)lar hamda dorilarning achchiqligiga sabr qilasan. Xo`sh, nega gunohlar bilan xastalangan qalbingga unday qilmaysan?".

◆ **Biz:** "Alloh ta`ologa hikmati va rahmati barkamol bo`lgani uchun yomonlik nisbatlanmaydi"- deb imyon keltiramiz. Rasululloh sollalohu alayhi va sallam:

**"(Ilohim), yomonlik senga nisbat e`tilmas"**- dedilar. Alloh ta`oloning qazosida yomonlik yo`qdir. Balki, qazo Allohnинг rahmati va hikmatidan sodir bo`lgandir. yomonlik o`z taqozosiga qarab bo`ladi. Rasululloh sollalohu alayhi va sallam Hasan raziyallohu anhuga "Qunut duosi" ni o`rgatar e`kanlar: "**Va qiniy sharra ma qozayta**" (**Va meni qilgan qazoingning yomonliklaridan saqla**)"- dedilar. Rasululloh sollalohu alayhi va sallam yomonlikni Allohnинг qilgan qazosiga bog`ladilar. Shunday bo`lsada, yomonlik faqatgina yomonlik e`mas. Balki, yomonlik sabablardadir. Yomonlik bir o`rinda bir jihatdanda yomonlik bo`lishi, va boshqa jihatdan yaxshilik bo`lishi va boshqa bir o`rinda e`sa faqat yaxshilik bo`lishi mumkin. Kasallik, qurg`oqchilik, faqirlik va xavf kabi fasodlar yer yuzida yomonlik, biroq, bir o`rinda yaxshilikdir. Alloh ta`olo dedi: "**Quruqlik va dengizda fasod qilgan ayrim ishlarini totitish uchun odamlarning qo`llari qilgan narsa sabablidir. Shoyad, ular (Allohnинг yo`liga) qaytsalar**" (Rum: 41).

Zoniyni savalash va o`g`rining qo`lini kesiah har ikkisi uchun alamli bo`lsada, boshqa bir tarafdan yaxshilikdir. Chunki, bu jazolar ularning qilgan gunohlari uchun kafforot bo`ladi va qiyomat kuni dunyo va oxirat jazolari bir bo`lgan kunda jazolanmaydi. Boshqa tarafdan e`sa, jazolar ortida mulklar, nomuslar va nasablarni himoya qilish yotadi.

## Fasl

◆ **Bu** - buyuk asoslarni o`z ichiga olgan e`tiqod bo`lib, uni abul qilgan kishilar uchun katta va ko`p samaralar beradi.

◆ **Alloh ta`ologa va uning ism va sifatlariga iymon keltirish** - bandaga Allohnинг amrlarini bajarish va ta`qiqlaridan saqlanish bilan birga, Alohn sevish va ulug`lashni samara qilib beradi. Allah ta`oloning amrlarini bajarish va ta`qiqlaridan saqlanish e`sа, jamiyatlar va shaxslar uchun dunyo va oxiratning baxt-saodatini samara qilib beradi. Allah ta`olo dedi: "**"Mo`min bo`la turib yaxshi amallarni qilgan e`rkak yoki xotinni shirin hayotga tiriltiramiz va uni qilgan ishlaridan ko`ra yaxshiroq bo`lgan savoblar bilan mukofotlaymiz"**" (Nahl: 97).

◆ **Farishtalarga iymon keltirishning samaralari**

**Birinchi:** Allah ta`olo va Allah ta`oloning quvvati va saltanatining buyukligini bilish.

◆ **Ikkinci:** Allah ta`oloning bandalarga bo`lgan e`tiboriga shukronalar aytish. Chunki, Allah ta`olo ularni himoya qilish, ularning amallarini yozish va boshqa manfaatlari uchun farishtalarni vakil qildi.

◆ **Uchunchi:** Allah ta`ologa qilgan komil ibodatlari va mo`minlar uchun qilgan istig`forlari e`vaziga farishtalarni sevish.

◆ **Ilohiy kitoblarga iymon keltirishning samaralari**

**Birinchi:** Allah ta`oloning o`z maxluqlariga bo`lgan buyuk marhamati va e`tiborini bilish. Chunki, Allah ta`olo har bir maxluqni hidoyat qilish uchun kitoblar nozil qildi.

◆ **Ikkinci:** Allah ta`oloning hikmatining zohir bo`lishi. Chunki, Allah ta`olo har bir xalqqa munosib bo`lgan kitobni indirdi. Bu kitoblarining e`ng so`nggisi bo`lgan Qur`on Karim zamon va makonidan qat`iy nazar, har bir xalqqa munosibdir.

◆ **Uchunchi:** Allah ta`ologa bu ne`matlar uchun shukr aytish.

◆ **Payg`ambarlarga iymon keltirishning samaralari**

**Birinchi:** Allah ta`oloning o`z maxluqlariga bo`lgan buyuk marhamati va e`tiborini bilish. Chunki, Allah ta`olo o`z bandalariga to`g`ri yo`lni ko`rsatadigan payg`ambarlarni yubordi.

◆ **Ikkinci:** Allahga bu ne`matlar uchun shukr aytish.

◆ **Uchunchi:** Payg`ambarlarni sevish, hurmat qilish va ularni loyiq bo`lgan suratda maqtash. chunki, ular Allah ta`oloning e`lchilari va bandalarining sarasi bo`lib, Allah ta`ologa ibodat va bandalariga nasihat qildilar. Allohnинг payg`omini etkazdilar va bu yo`lda sabr qildilar.

◆ **Oxiratga iymon keltirishning samaralari**

◆ **Birinchi:** Oxirat kунидаги савобларга е`ришисх үчүн Аллоҳ та`олонинг тоатига, жазоларидан қо`рғиб е`са та`қиqlаридан саqlanishга harislik.

◆ **Ikkinci:** Мө`мінгә оxиратдаги савоб ва нө`матларни umid qilishi bilan dunyoda e`risha olmagan ne`mat va mukofotlar berish bilan tasalli berish.

### ◆ **Taqdirga iymon keltirishning samaralari**

◆ **Birinchi:** Sabablarni qilish paytida Аллоҳ та`олога suyanish. chunki, sabab va sabablantirilgan narsaning har ikkisi Аллоҳ та`олонинг qazosi va qadari bilan bo`ladi.

◆ **Ikkinci:** Nafs rohati va qalb xotirjamligi. Chunki, qalb bir narsaning Allohnинг qazosi bilan bo`lishi, yoqtirmagan ishlarning muqarrar ravishda bo`lishini bilsa rohatlanadi va Аллоҳ та`олонинг qazosiga rozi bo`ladi. Biror kimsa Аллоҳ та`олонинг taqdiriga iymon keltirgan kishilar kabi xotirjam va rohatda yashay olmaydi.

◆ **Uchunchi:** Maqsadga e`rishiilgan payt g`ururni ketkazish. Zero, e`rishiilgan ne`mat Аллоҳ тақдир qilgan sabab va muvaffaqiyat bilan qo`lga keladi. Buni bilgan odam ne`матларни berga Аллоҳ та`олога shukronalar aytib, o`zidan mag`rurlanishni ketkazadi.

◆ **To`rtinchi:** Maqsad qo`ldan ketgani yoki boshga musibat etganida bezovtalik va jahlni ketkazish. Chunki, u narsalarning barchasi samovot va yerning mulk sohibi bo`lgan Аллоҳ та`олонинг qazosi bilan bo`lgan va bo`lishi muqarrar e`di. Shuning үчун u odam Allohnинг qazosiga sabr qiladi va savob umidida bo`ladi. Bunga Аллоҳ та`олонинг ushbu oyati ishora qiladi: "**Yer va o`zingizga etgan musibat yaratishimizdan avval Allohnинг kitobida bor e`di. Bu ish Аллоҳ үчун osondir. Toki sizlar qo`llaringizdan ketgan narsaga qayg`urmagaysiz va Аллоҳ ato e`tgan narsalar bilan mag`rurlanib ketmagaysiz. Аллоҳ та`olo kibr va havoga berilgan va maqtanchoq odamlarni suymas**" (Hadid: 22, 23).

**Biz Аллоҳ та`олодан бизларни шу е`тиqodda sobitqadam qilishi, бизлар үчун uning samaralarini ro`yobga chiqarishi, o`z fazlini ziyoda qilishi, qalblarimizni hidoyat qilganidan so`ng adashtirmasligi va o`z rahmatidan berishini so`raymiz. U in`omlar ato e`tuvchi zotdir.**

**Alloҳ та`olo payg`ambarimiz, uning oilasi, sahabalari va ularga qiyomat kuniga qadar e`rgashgan kishilarga salavot va salomlar yo`llasin.**

*Ushbu risola Muhammad ibn Solih Usaymin tarafidan hijriy 1404 yil shavvol oyining 30- kuni yozilib, nihoyasiga etkazildi.*

